

Natalya Shokirova

Nemis tilidagi modal fe'llar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Nemis tilida modal fe‘llar

(o‘quv qo‘llanma)

Toshkent
“Universitet”
2010

Nemis tilida modal fe'llar

O'quv qo'llanma. T.: O'z MU, 2010, 52 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada nemis tilidagi modal fe'llar, ularning xususiyatlari hamda mazmun mohiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib, universitetlarning nemis tilini asosiy chet tili sifatida o'rganadigan talabalariga hamda magistrantlarga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda nemis tilidagi modal fe'llar to'g'risida nazariy ma'lumotlar berilgan va modal fe'lli iboralarini o'zbek tiliga tarjima qilish usullari ko'rsatilgan. Har bir mavzudan so'ng mavzu bo'yicha tayanch iboralar hamda mavzuni mustahkamlash uchun savollar berilgan.

Ikkinchi qism esa talabalarning mustaqil ishlashlari uchun mashqlardan iborat. O'quv qo'llanmada berilgan mashqlarga doir vazifalarning yechimlari ham ilova qilingan.

Tuzuvchi: fil. f. n., dots. Natalya Shokirova

Ma'sul muharrirlar: fil. f. n., dots. Shuhratxon Imyaminova

fil. f. n., dots. Mavluda Qosimova

Taqrizchilar: fil. f. n., dots. Jusuf Ismoilov

fil. f. n., dots. M.G'anixo'jayeva

O'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'Z MU Xorijiy filologiya fakulteti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. 29 mart 2010 yil 9 - sonli bayonnoma



Aziz Shogird!

Siz oliy o‘quv yurtida nemis tilini o‘rganayapsiz va Sizning orzuingiz buyuk olimlar, faylasuflar, shoir va yozuvchilarning ona tilisi bo‘lgan ushbu tilni mukammal bilishdir. Bu degani har bir fikringizni, atrofingizda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarga o‘z munosabatingizni nemis tilida ifoda qila olishingiz lozim demakdir. Xohish-istak, zaruriyat, tasdiq hamda ehtimollik kabi tushunchalarni o‘z nutqingizda to‘g‘ri va aniq qo‘llay olishingiz uchun nemis tilidagi *müssen, können, dürfen, mögen, sollen, wollen* modal fe‘llarning gapda ishlatilishiga e‘tibor qaratishingiz muhim ahamiyat kasb etadi Mazkur qo‘llanma muallifi Sizga bu borada o‘z maslahat va tavsiyalarini beradi. Ushbu qo‘llanmadan foydalanar ekansiz, qadam-baqadam yozma va og‘zaki nutqda juda ko‘p uchraydigan modal fe‘llarni o‘z o‘rnida bexato qo‘llashni o‘rganishingiz mumkin.

Darhaqiqat, o‘zbek tilida modallikni ifodalaydigan lisoniy vositalar juda ko‘p. Ularning qay biri nemis tilidagi modal fe‘llarga mos kelishini to‘g‘ri talqin eta olishingizda shu o‘quv qo‘llanma Sizga yordam beradi, deb o‘ylayman.

O‘quv qo‘llanma ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda nemis tilidagi modal fe‘llar to‘g‘risida nazariya va nemis modal fe‘lli iboralarning ma‘nolari hamda ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Har bir mavzudan keyin mavzu bo‘yicha tayanch iboralar hamda mavzuni mustahkamlash uchun savollar berilgan. Ikkinchi qism esa talabalarning mustaqil ishlashlari uchun mashqlardan iborat. Mashqlarga doir vazifalarning yechimlari o‘quv qo‘llanmaga ilova qilingan. Bu Sizga mashqlarni mustaqil holatda bajarish va o‘z-o‘zingizni tekshirish uchun imkon yaratadi.

Aziz O‘quvchi, muallifingiz Sizga nemis tilini o‘rganishingizda sabr, chidam hamda omad tilaydi va buning uchun Sizga kamtarona mehnati qo‘l keladi deb umid qiladi. Ushbu qo‘llanma bo‘yicha takliflaringiz, mulohazalaringiz hamda savollaringiz bo‘lsa quyidagi elektron pochta manzilimga murojaat etsangiz, Sizdan benihoya minnatdor bo‘lardim: modallik@gmail.com

Natalya Shokirova

Modallik tushunchasi va modal fe'llar

Nemis tilida *können, dürfen, müssen, sollen, mögen, wollen* fe'llari modal fe'llar deyiladi. „Modal“ so'zi lotincha „modus“ so'zidan olingan bo'lib, o'lchov, usul, yo'l kabi ma'nolarni ifodalaydi. Modallik deganda tilshunoslikda gap mazmunining obyektiv borliqqa va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi.¹ Modallik ostida gapning subyekt bilan bog'liq bo'lgan turli ma'nolari tushiniladi, bu ma'nolar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Obyektiv modallik;
- 2) Subyektiv modallik.

Har ikki modallik xususiyati tilda turlicha mavqega ega. Ular bitta gapda bo'lishi mumkin, ammo obyektiv modallik har bir fikr-mulohazada ishtiroq etuvchi asosiy modallikdir. Subyektiv modallik esa fakultativ xarakterga ega: u gapda mavjud bo'lishi, shuningdek mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Modallik kategoriyasi turli til vositalari tizimida o'z ifodasini topadi, ammo har bir tilda uning tutgan o'rni turlichadir.

Nemis tilida modallik kategorizasini ifodalazdigan vositalardan eng muhimlari quyidagilar: fe'lning grammatik tizimida - fe'l mayllari va modal fe'llar; fonetika tizimida. intonatsiya; leksika tizimida – yuklamalar, modal so'zlar va so'z birikmalari.

O'zbek tili nemis tilidan farqli o'laroq, butunlay boshqa til oilasiga mansub bo'lsa-da, biz unda ham agglutinativ tizimning o'ziga xosliklariga mos

¹ Модаллик ва унинг турли хил талқини ҳақида қаранг: А.Ғуломов, М.Аскарлова. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: 1986, 37-39 – бетлар.

ravishda shakllangan, modallikni ifodalashning bir qator o'xshash vositalariga duch kelamiz. Ularning eng asosiylari fe'l mayllari tizimi, fe'ning maxsus modal shakllari¹, yuklamalar, affikslar, modal so'zlar, frazeologizmlar, unililarning ikkilanishi va intonatsiyadir.

Modal fe'llar orqali ifodalangan modallik gapning egasi (subyekt) bilan noaniq shakldagi fe'l (infinitiv) orqali ifodalangan ish-harakat o'rtasida qanday turdagi munosabat borligini tavsiflab beradi, ya'ni u logik-grammatik modallikdir. O'zbek tilida modal fe'llar alohida tur sifatida mavjud emas, shu bois nemis tilidagi modal fe'llarning mazmun-mohiyatini tarjimada aks ettirish bir qator boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, mumkinlik, imkoniyat mazmuni tarkibida "olmoq" fe'li bo'lgan, "grammatikalizatsiyalashgan murakkab fe'l"² bilan (*qila olmoq, yoza olmoq*), shuningdek harakat nomi va modal so'z bilan (*ketishi mumkin*), istak, xohish mazmuni buyruq-istak va maqsad mayillari bilan (*u borsin; bormoqchi bo'layapman*)³, shuningdek "hoxlamoq" va "istamoq" singari "modal" fe'llar bilan, zarurlik, lozimlik ma'nosi modal so'zlarning alohida guruhi bilan (*kerak, lozim, sarur*) beriladi.⁴

Können, dürfen, müssen, sollen, mögen, wollen fe'llari tub modal fe'llardir. Ba'zi nemis tilshunoslari „lassen“ va „brauchen“ fe'llarini ham ularning sirasiga kiritadilar. Yozma va og'zaki nemis tilida modal fe'llardan foydalanish darajasi juda yuqori.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

modallik, modallik kategoriyasi, sub'yektiv va ob'yektiv modallik, modal fe'llar, fe'l mayllari, intonatsiya, modal so'z, yuklama, infinitiv, grammatikalizatsiyalashgan murakkab fe'l, harakat nomi, formal va semantik xususiyat

¹ Мирзаев, М., Усмонов, С., Расулов, И. Ўзбек тили. Тошкент, Ўқитувчи, 1970, 144-145 б.

² О'sha asar 156 б.

³ Ўзбек тили грамматикаси. I том. Тошкент, 1975, 474 б

⁴ Мирзаев, М., Усмонов, С., Расулов, И. Ўзбек тили. Тошкент, Ўқитувчи, 1970, 167 б.; Усмонова, М., Азларов, Э., Шарипов, Ф. Ўзбек тили, Тошкент, Ўқитувчи, 1991, 185 б.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nemis tilidagi können, dürfen, müssen, sollen, mögen, wollen fe'llari nima uchun modal fe'llar deb ataladi?
2. Tilshunoslikda modallik nimani ifodalaydi?
3. Nemis tilida modallik qanday til vositalari bilan ifodalanadi?
4. O'zbek tilida modallik qanday til vositalari bilan ifodalanadi?
5. Nemis tilida modal fe'llar bilan ifodalangan modallik qanday munosabatni anglatadi?

2. Modal fe'llarning tuslanishi

2.1. Modal fe'llarning presens va preteritda tuslanishi

1. Nemis tilida modal fe'llarning tuslanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Boshqa fe'llarning preterit shakliga o'xshab modal fe'llar prezensda 1-va 3-shaxs birlikda shaxs qo'shimchalari olmaydi (Shu sababdan ular preterito-prezensiya fe'llar deb ham ataladi). Bundan tashqari *sollen*-dan boshqa barcha modal fe'llar prezensda tuslanganda, birlikda o'zagidagi unlisini o'zgartiradi.

Infinitiv: *können, dürfen, müssen, sollen, wollen, mögen*

presens

ich	<i>kann</i>	<i>darf</i>	<i>muss</i>	<i>soll</i>	<i>will</i>	<i>mag</i>
du	<i>kannst</i>	<i>darfst</i>	<i>musst</i>	<i>sollst</i>	<i>willst</i>	<i>magst</i>
er	<i>kann</i>	<i>darf</i>	<i>muss</i>	<i>soll</i>	<i>will</i>	<i>mag</i>
wir	<i>können</i>	<i>dürfen</i>	<i>müssen</i>	<i>sollen</i>	<i>wollen</i>	<i>mögen</i>
ihr	<i>könnt</i>	<i>dürft</i>	<i>müsst</i>	<i>sollt</i>	<i>wollt</i>	<i>mögt</i>
sie	<i>können</i>	<i>dürfen</i>	<i>müssen</i>	<i>sollen</i>	<i>wollen</i>	<i>mögen</i>

2. Barcha kuchsiz fe'llar singari modal fe'llar preteritda tuslanganda *-te* suffiksini partitsip II shaklida esa *-t* suffiksini oladi; preterit va partitsip II shakllarida *können, dürfen, müssen u mögen* modal fe'llari umlaut olmaydi. Bu shakllarda *mögen* fe'lidagi „g“ „ch“ga aylanadi:

preterit

ich	konnte,	durfte,	musste,	sollte.	wollte.	mochte
du	konntest,	durftest,	musstest,	solltest,	wolltest.	mochtest
er	konnte,	durfte,	musste,	sollte,	wollte,	mochte
wir	konnten,	durften,	mussten,	sollten,	wollten,	mochten
ihr	konntet,	durftet.	musstet,	solltet,	wolltet,	mochtet
sie	konnten	durften,	mussten,	sollten,	wollten,	mochten

partitsip II: gekonnt, gedurft, gemusst, gesollt, gewollt, gemocht

Modal fe'llar bilan birga kelgan "man" olmoshi o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi:

<i>man kann</i>	-	<i>mumkin</i>	<i>man kann nicht</i>	-	<i>mumkin emas</i>
<i>man darf</i>	-	<i>ruxsat etiladi</i>	<i>man darf nicht</i>	-	<i>man etiladi</i>
<i>man muss</i>	-	<i>zarur</i>	<i>man muss nicht</i>	-	<i>zarur emas</i>
<i>man soll</i>	-	<i>lozim</i>	<i>man soll nicht</i>	-	<i>lozim emas</i>

2.2. Modal fe'llarning asosiy shakllari

Modal fe'llarning uch asosiy shakli xuddi kuchsiz fe'llarning 3 asosiy shakliga o'xshab yasaladi, ammo modal fe'llar preterit va partitsip II shakllarida o'zakdagi umlautni yoqotadi. Modal fe'llarning partitsip II kuchsiz shakli bilan bir qatorda amalda eski, infinitiv bilan mos keladigan kuchli shakli ham ishlatiladi:

infinitiv	preterit	partitsip II
können	konnte	gekonnt / können
dürfen	durfte	gedurft / dürfen
müssen	musste	gemusst / müssen
sollen	sollte	gesollt / sollen
wollen	wollte	gewollt / wollen
mögen	mochte	gemocht / mögen

2.3. Modal fe'llarning perfekt, pluskvamperfekt va futurum shakllarining yasalishi

Modal fe'llarning perfekt va pluskvamperfekt shakllari *haben* yordamchi fe'li yordamida yasaladi. Modal fe'l gapda boshqa bir fe'lning infinitiv shakli bilan ishlatiladigan bo'lsa, modal fe'lning perfekt va pluskvamperfekt shakllarini yasashda uning partitsip II shaklining kuchli formasi, ya'ni yuqorida aytilgandek Infinitiv bilan mos keladigan shakli ishlatiladi. Ammo, agar gapda modal fe'l bilan birga infinitiv shaklidagi boshqa fe'l bo'lmasa, modal fe'lning perfekt va pluskvamperfekt shakllari umumiy qoida bo'yicha yasaladi. Modal fe'llarning kelasi zamoni yasash futur I yasashning umumiy qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi.

perfekt: Er hat gut tanzen können. (Ich habe es nie gekonnt.)

pluskvamperfekt: Er hatte gut tanzen können. (Ich hatte es nie gekonnt.)

futur I: Er wird gut tanzen können.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

tuslanish, presens, preterit, preterito-presensia fe'llari, birlik, ko'plik, negiz unlisi, kuchsiz fe'llar, kuchli fe'llar, umlaut, partitsip II, infinitiv, futur, perfekt, pluskvamperfekt

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Nemis tilidagi können, dürfen, müssen, sollen, mögen, wollen fe'llari nima uchun preterito-presensia fe'llari deb ham ataladi?
2. Modal fe'llar prezensda qanday tuslanadi?
3. Modal fe'llar preteritda qanday tuslanadi?
4. Modal fe'llarning perfekt, pluskvamperfekt va futur shakllari qanday yasaladi?
5. Modal fe'llarning 3 asosiy shakli qanday yasaladi?



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/1322> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/1322> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/1322>